



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari

2-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari" elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

| | |
|---|-------|
| <i>Matkarimova Sadoqat Maqsudovna</i> SHARQSHUNOS A.L.KUNNING XIVA XONLIGI ARXIV HUJJATLARINI SAQLASH VA TADQIQ QILISHDAGI XIZMATLARI | 13-19 |
| <i>Matyakubov Xamdam Xamidjanovich</i> MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSİYALARI VA OROLBO'YI HUDUDIDAGI MADANIYATLAR O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR VA HAMKORLIK | 20-24 |
| <i>Raximov Bektosh, Pirmamatov Ramziddin</i> TURKISTONDA JADIDLARNING TA'LIM-TARBIYA TIZIMINI ISLOH QILISH BORASIDAGI HARAKATLARI TARIXIDAN | 25-29 |
| <i>Хуррамова Саодат Хабибовна</i> ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ РУССКИМИ УЧЕНЫМИ В СЕРЕДИНЕ XIX ВЕКА | 30-37 |
| <i>To'ychiyeva Dilnoza Ikrom qizi</i> ZOMIN TUMANINING XX ASRNING 80-YILLARIDAGI IJTIMOIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI | 38-44 |
| <i>Elboyeva Shaxnoza</i> AYOLLARNING SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA- TADBIRLAR VA BU BORADA O'ZBEKİSTON TAJRIBASI | 45-50 |
| <i>Kanimkulov Olimjon, Xikmatova O'g'iloy</i> TUZNING QADIMDAN HOZIRGI KUNGACHA BO'LGAN TARIXI HAQIDA | 51-54 |
| <i>Tojiev Alisher Sultannazirovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA TURIZM SOHASI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH MASALASI | 55-60 |
| <i>Bekbayev Bekjon</i> XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA TOSHKENTDAGI QOZOQLAR TARIXIDAN | 61-67 |
| <i>Salayev Umrbek Kadambayevich</i> JANUBIY OQCHADARYO HUDUDIDA KECHGAN ETNIK JARAYONLAR TARIXI SAHIFASIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR | 68-71 |
| <i>Ro'ziyeva Mashxura Abdumuminovna</i> LO'LILAR IJTIMOIY HAYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI | 72-78 |
| <i>Turdiyeva Mohinur Ilhomjon qizi</i> ICHKI SAVDO QO'QON XONLIGI IQTISODIY TARAQQIYOTINING MUHIM OMILLARIDAN BIRI (1701-1876) | 79-84 |

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

| | |
|---|-------|
| <i>Kazakov Olim Sabirovich</i> XIZMATLAR SOHASIDA BOSHQARUVNING YETAKCHILIK KONSEPSİYALARIDAN FOYDALANISH | 85-89 |
|---|-------|

| | |
|--|---------|
| <i>Исламутдинова Дина Файзрахмановна</i> | |
| РАЗВИТИЕ ЭКСПОРТА В АГРОПРОМЫШЛЕННОМ КОМПЛЕКСЕ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН | 90-98 |
| <i>Alikulov Mehmonali Salahiddin o'g'li</i> | |
| QISHLOQ XO'JALIGIGA INVESTITSIYALARNI KENG JALB QILISHDA QISHLOQ XO'JALIGIGA YO'NALTIRILGANLIK INDEKSINING AHAMIYATI | 99-106 |
| <i>Omonov Akrom, Ruziyev Baxtiyor</i> | |
| O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI AKTIVLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI | 107-113 |
| <i>Tangirov Abduxolik, Nurmanov Sherzod</i> | |
| CHO'L-YAYLOVLARI EKOLOGIK HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LARI | 114-121 |
| <i>Aliyarov Olim Abdug'aparovich</i> | |
| MULKIY SOLIQQA TORTISHDA XORIJUY DAVLATLAR TAJRIBASI | 122-132 |
| <i>Komilov Bakhtiyorjon</i> | |
| UNLOCKING THE POTENTIAL OF E-COMMERCE LOGISTICS IN CENTRAL ASIA | 133-144 |
| <i>Djumanov Saitmurod Alibekovich</i> | |
| MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILADIGAN XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH | 145-150 |
| <i>Yariyev Sherzod Shukurjanovich</i> | |
| DAVLAT SEKTORIDA AUDITNI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI | 151-155 |
| <i>Matkarimov Feruz Bekturdiyevich</i> | |
| MINTAQADA TO'QIMACHILIK SANOATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH | 156-160 |
| <i>Xaydarova Durdona, To'xtayeva Moxinur</i> | |
| DAVLAT BUDJET DAROMADLARI TUSHUMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI | 161-166 |
| 09.00.00 – FALSAFA FANLARI | |
| <i>Yusubov Jaloliddin Kadamovich</i> | |
| ABU NASR FOROBIYNING MA'NAVIY-AXLOQIY IDEALLARI VA ULARNING ZAMONAVIY IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR RIVOJIDAGI AHAMIYATI | 167-175 |
| <i>Nosirxo'jayeva Gulnora Abduqahhorovna</i> | |
| FOROBIY ASARLARIDA ADOLAT VA MA'NAVIY YUKSALISH MUAMMOLARI | 176-179 |
| <i>Xoliqov Yunus Ortiqovich</i> | |
| BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO MADANIYAT — JAMIYAT TARAAQQIYOTINING ASOSI | 180-184 |
| <i>Berdaliyeva Sevara</i> | |
| ANALYSIS OF VIEWS ON THE ORDERING OF SOCIAL LIFE IN THE WORK OF YUSUF KHOS KHAJIB "KUTADGU BILIG" | 185-191 |
| <i>Parpiyev Muhammadjon Tolibovich</i> | |
| SHARQ RENNESANSI KELIB CHIQISHINING IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLARI | 192-197 |
| <i>Yarashova Mohlaroyim Shuxrat qizi</i> | |
| IBN ARABIY "VAHDATUL VUJUD" TA'LIMOTINING FALSAFIY ASOSLARI VA AHAMIYATI | 198-202 |

| | |
|---|---------|
| <i>Ulug'murodov Elyor Saydulloevich</i> | |
| ISLOM GNOSEOLOGIYASIDA RATSIONALIZM MUAMMOSI | 203-206 |
| <i>Rasulov Azizzon Mukhamadqodirovich</i> | |
| AXBOROT MAKONIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUVNING DIALEKTIK MAZMUNI | 207-213 |
| <i>Xasanov Boburjon Xakimovich</i> | |
| EKSTREMISTIK FAOLIYATNING KELIB CHIQISH TARIXI VA TUSHUNCHALARI | 214-219 |
| <i>Shokirov Mubin Rustamovich</i> | |
| MILLIY O'ZLIKKA SADOQAT – UMRBOQIY QADRIYAT | 220-225 |
| <i>Ismoilov Maxammadixon</i> | |
| HOZIRGI ZAMON EKOLOGIK MANZARASIDA DESTRUKTIV VA KONSTRUKTIV MUNOSABATLAR DIALEKTIKASI | 226-230 |
| <i>Shokirov Murod Rustamovich</i> | |
| YANGI O'ZBEKİSTONDA QADRIYATLARNING QAYTA TIKLANISHI | 231-234 |
| <i>Hamroyev Saidjon Sanoyevich</i> | |
| YANGI O'ZBEKİSTON STRATEGIYASIDA IJTIMOIY ADOLATNING BARQAROR TARAQQIYOTNI TA'MINLASH ASOSI SIFATIDAGI O'RNI | 235-239 |
| <i>Sharopov O'lmasbek Shuhrat o'g'li</i> | |
| ZAMONAVIY OILADA BOLA TARBIYASINING ASOSIY OMILLARI (TARBIYA JARAYONIDA OTA-ONANING ROLI) | 240-243 |
| <i>Ulug'ov Jasur Nasirdinovich</i> | |
| INSON KAMOLOTI: ISLOMIY QADRIYATLAR VA ULARNING IJTIMOIY HAYOTGA TA'SIRI | 244-249 |
| <i>Qodiraliyev Abror Tojimurot o'g'li</i> | |
| BOSHQARUVCHILIK FAOLIYATI SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHLARI MISOLIDA | 250-253 |
| <i>Ibragimov Kudrat</i> | |
| XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA MARKAZIY OSIYONING YANGI MUSTAQIL DAVLATLARI | 254-260 |
| <i>Oripov Axmadjon Muxammadjonovich</i> | |
| VATANPARVARLIK TUSHUNCHASI SHAKLLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TALQINI | 261-267 |
| <i>Ibragimova Zulayxo Karimbayevna</i> | |
| RAHBAR AXLOQIY-ESTETIK KAMOLOTINING SHAKLLANISH JARAYONLARI VA ASOSIY KOMPONENTLARI | 268-274 |
| <i>Abdullayev A'zam Abdiyevich</i> | |
| YOSHLARDA IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLLIGI DIALEKTIKASI VA UNING AYRIM XUSUSIYATLARI | 275-281 |
| <i>Ochilov Azimjon Tuxtamishovich</i> | |
| IJTIMOIY QADRIYATLARNING DEFORMATSIYASI VA KORRUPSIYANING TARQALISHI | 282-285 |

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

| | |
|---|---------|
| <i>Raxmanova Sarvinoz Alisherovna</i> | |
| SABR VA CHIDAMGA OID FRAZEOLGIK BIRLIK LARNING SEMANTIK TAHLILI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) | 286-289 |
| <i>Kaxarova Iroda Sidikovna</i> | |
| MODAL SO'ZLARDA SHARTLILIK VA TIPOLOGIK OMIL: SEMANTIK TURLANISH | 290-296 |
| <i>Babajanova Nazokat Davronbekovna</i> | |
| "YUSUF VA ZULAYHO" DOSTONINING XALQ VARIANTLARI TAHLILI | 297-302 |
| <i>Sayidova Shakhrizoda Nasrulloyevna</i> | |
| RELIGIOUS VIEWS OF THE CHARACTER OF AMIR TEMUR IN MUHAMMAD ALI'S WORK "ULUG' SALTANAT" | 303-308 |
| <i>Hatamova Kamola Toshmurod qizi</i> | |
| TIJORAT HUJJATLARI TILIDA TERMINOLOGIK LEKSIKA | 309-316 |
| <i>Ibodullayeva Dinora Bahramjanovna</i> | |
| TERMINOLOGIYANING O'ZBEK VA XORIJYI TILSHUNOSLAR TOMONIDAN O'RGANILISHI | 317-321 |
| <i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i> | |
| SUD JARAYONIDA OLIB BORILADIGAN NUTQ FAOLIYATI MAHSULOTLARINING SUD-TIBBIY VA LINGVISTIK EKSPERTIZA TEKSHIRUVI | 322-326 |
| <i>Khasanov Mahmud Abdurakhmanovich</i> | |
| PHONOLOGICAL AND MORPHOLOGICAL INTERACTIONS AMONG THE LANGUAGES | 327-331 |
| <i>Xoshimova Oydina Shuxrat qizi</i> | |
| OLAMNING LISONIY MANZARASIDA NOMINATSIYANING O'RNI VA RANGLAR IFODASI | 332-338 |
| <i>Babayeva Iroda</i> | |
| THE CHARACTERISTICS OF NEWSPAPER HEADLINES IN TERMS OF THEIR STRUCTURE AND MEANING | 339-342 |
| <i>Fozilov Odil Yuldashevich</i> | |
| USE OF LOGICAL AND FIGURATIVE PERIPHRASES IN MODERN UZBEK LANGUAGE..... | 343-346 |
| <i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> | |
| JADID DRAMALARIDA ISLOM MADANIYATI VA MILLAT TANAZZULI MASALALARI TALQINI (ABDULLA QODIRIYNING "BAXTSIZ KUYOV" DRAMASI MISOLIDA) | 347-351 |
| <i>Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna</i> | |
| TEZ AYTISHLARNING SINTAKTIK TUZILISH JIHATDAN TAHLILI | 352-357 |
| <i>Xamidova Sayyora Nurmatovna</i> | |
| KATEGORIYA SIFATIDA SHAKLLANGAN MODALLIK TURLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI | 358-363 |
| <i>Mengboev Azizbek Alijon o'g'li</i> | |
| INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MILLIY BAYRAM NOMLARINING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI | 364-368 |
| <i>Hayitova Shohida Erkin qizi</i> | |
| INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI OTA KONSEPTINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI | 369-373 |

| | |
|--|---------|
| <i>Xolboyeva Iroda Shuxrat qizi</i> | |
| SOMATIK KOMPONENTLI PROVERBIAL FRAZEOLOGIZMLARDA EKVIVALENTLIK MASALASI | 374-378 |
| <i>Saparniyazov Omirbek Nukusbayevich</i> | |
| MARK TVEN VA MUQIMIY ASARLARINI QIYOSIY O'RGANISH: ADABIY UMUMIYLIK VA USLUBIY O'ZIGA XOSLIGI | 379-385 |
| 12.00.00 – YURIDIK FANLAR | |
| <i>Muhitdanova Firuza</i> | |
| КЛЮЧЕВЫЕ ПРИОРИТЕТЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА | 386-393 |
| <i>Uzakova Go'zal Sharipovna</i> | |
| HUDUDLARNI ZONALASHTIRISHNING HUQUQIY MASALALARI | 394-403 |
| <i>Tulaganova Gulchexra, Nurilloyev Shavkat</i> | |
| INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH | 404-414 |
| <i>Yakubova Iroda Bahramovna</i> | |
| MUALLIFLIK SHARTNOMASINING MAZMUNI, TUZILISHI VA UNING ASOSIY SHARTLARI | 415-419 |
| <i>Obidov Tolibjon Avezxonovich</i> | |
| JINOIY SUD ISHLARINI YURITISH SOHASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI | 420-425 |
| <i>Tuxtashov Sherzod Azimovich</i> | |
| JINOYAT ISHINI TO'XTATIB TURISHNING JABRLANUVCHI VA AYBLANUVCHI UCHUN HUQUQIY OQIBATLARI | 426-430 |
| <i>Maxamatov Maxmud Maxamataminovich</i> | |
| INSON HUQUQLARINI XALQARO ORGANLARDA HIMoya QILISH MASALALARI | 431-436 |
| <i>Rahmatov Elyor Jumaboyevich</i> | |
| BOJXONA MA'MURIYATCHILIGINI ISLOH QILISHDA BOJXONA ORGANLARINING DAVLAT IQTISODIY VA HUQUQIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ISHTIROKI | 437-441 |
| <i>Jumaniyozova Dilfuz Kamolovna</i> | |
| IJTIMOIY XAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR MUAMMOLARI YECHIMI: XORIJ TAJRIBASI | 442-447 |
| <i>Shermatov Nuriddin</i> | |
| RAQAMLI ERA DA SUN'iy INTELLEKT (AI) VA ADDITIV (3D PRINTING) TEXNOLOGIYALARI INTELLEKTUAL MULK HUQUQINING OBYEKTI SIFATIDA | 448-455 |
| <i>Juraeva Asal</i> | |
| EXECUTION OF INTERNATIONAL COMMERCIAL ARBITRAL AWARDS | 456-461 |
| <i>Собиров Сайдбек Махмудович</i> | |
| ДОКТРИНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ВОПРОСЫ СУДЕБНОГО ПРИМЕНЕНИЯ И ТОЛКОВАНИЯ ОТДЕЛЬНЫХ НОРМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА О НЕПЛАТЕЖСПОСОБНОСТИ | 462-467 |
| <i>Nurbayev Muzaffar Erkinovich</i> | |
| DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY DOKTRINASINI TAKOMILLASHTIRISH | 468-478 |

| | |
|--|---------|
| <i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> | |
| INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY ASOSLARI: INTERNET TUSHUNCHASI | 479-485 |
| <i>Xabibullayev Azizillo Lutfullo o'g'li</i> | |
| SUN'YIY INTELLEKT VA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR VA HUQUQIY MUAMMOLAR | 486-491 |
| <i>To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li</i> | |
| MURAKKAB ASHYOLARNING O'ZIGA XOS BELGILARI, ULARNING HUQUQIY VA FALSAFIY MOHIYATI | 492-500 |
| <i>Yusupov O'ktamboy</i> | |
| KORRUPSIYAVIY BITIM HAQIQIY EMASLIGINING FUQAROLIK-HUQUQIY OQIBATLARI | 501-509 |
| <i>Murodxonov Muhammadnur</i> | |
| XALQARO HUQUQNING TADRIJIY RIVOJLANISHIDA FUNDAMENTAL ASARLARNING O'RNI | 510-518 |
| <i>Ёкубов Шухратжон, Эргашева Муниса</i> | |
| МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕДИЦИНСКОГО ПРАВА В УЗБЕКИСТАНЕ: БАЛАНС МЕЖДУ МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ И НАЦИОНАЛЬНЫМИ ОСОБЕННОСТЯМИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ | 519-523 |
| <i>Qudratillayev Xazratali Zokirjon o'g'li</i> | |
| JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHNI TERGOV QILISH SOHASIDA XORIJY DAVLATLAR VAKOLATLI ORGANLARI BILAN HAMKORLIK MASALALARI | 524-530 |
| <i>Umarov Abbosjon Asliddin o'g'li</i> | |
| SUG'URTA INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY TAVSIFI | 531-536 |
| <i>Хайдарова Хилола Анваровна</i> | |
| ПРАВО НА ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК СУБЪЕКТИВНОЕ ПРАВО ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ | 537-542 |
| 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI | |
| <i>Ibraximov Sanjar Urunbayevich</i> | |
| AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA SPORTCHILARNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI BILAN ZIDDIYATLI VAZIYATLARDAGI XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIGI | 543-547 |
| <i>Karimov Akramjon Zaynobidinovich</i> | |
| RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR SHAROITIDA YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGI MADANIYATI VA MEDIAIMMUNITETINI TA'LIM JARAYONLARI ORQALI SHAKLLANTIRISH MASALALARI | 548-554 |
| <i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i> | |
| 7-9 YOSHLI O'QUVCHILARNING HARAKAT SIFATLARINI HARAKATLI O'YINLAR VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH | 555-561 |
| <i>Karimov Qayum Mamashayevich</i> | |
| KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINI O'QITISHDA TARMOQ TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH | 562-569 |

| | |
|---|---------|
| <i>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</i> | |
| MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONI | 570-576 |
| <i>Qodirov Azamat Muxriddinovich</i> | |
| IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR YUQORI SINF O'QUVCHILARINING INGLIZ TILI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MATN O'QISH MALAKASI VA KOMMUNIKATIV YO'NALGAN O'QISH MASHQLARINING AHAMIYATI XUSUSIDA | 577-582 |
| <i>Tleuemuratova Abadan Bekbanovna</i> | |
| ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ | 583-585 |
| <i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i> | |
| TALABALAR TA'LIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR | 586-592 |
| <i>Mamaziyayev Oblaberdi</i> | |
| OLIY TA'LIMNING NEMIS TILI DARSLARIDA GRAMMATIK TARJIMA METODIDAN FOYDALANISH AFZALLILKLARI | 593-598 |
| <i>Isoqov Murod Madaminjonovich</i> | |
| YOSHLAR JAMOAT TASHKILOTLARIDA IJTIMOIY KAPITALNI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJY MODELLARI | 599-605 |
| <i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna</i> | |
| BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O'QITISHNING HOZIRGI HOLATI | 606-610 |
| <i>Allayeva Hafiza Rustam qizi</i> | |
| BOSHLANG'ICH SINFDA O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI | 611-614 |
| <i>Raxmonberdiyeva Oygul Rayimjonovna</i> | |
| AKADEMIK QALAMTASVIR MASHG'ULOTLARIDA TALABALARGA INSON PORTRETI NI ISHLASH METODIKASI | 615-621 |
| <i>Xo'jaqulov Ro'zibek Ilhomjon o'g'li</i> | |
| BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA RANGTASVIR FANINING AHAMIYATI | 622-625 |
| <i>Elova Sitora Axmatkulovna</i> | |
| QISQA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNI TEXNIK TAYYORGARLIGINI SHAKLLANISH DARAJASI | 626-629 |

Received: 25 January 2025**Accepted:** 1 February 2025**Published:** 10 Febrary 2025*Article / Original Paper***INTERNAL TRADE WAS ONE OF THE IMPORTANT FACTORS IN THE ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE KOKAND KHANATE (1701-1876)****Turdiyeva Mohinur Ilhomjon qizi**

Master's Student, 2nd year,

Faculty of History, NDU

Abstract. This article provides information on the important role of internal trade in the economic life of the Kokand Khanate, the main trade and commercial centers, markets, caravanserais, prices, brokerage, handicrafts, farming, and trade in livestock products, as well as the cities of the khanate that became major economic centers, and the environment in the markets.

Keywords: crisis, Norbutabiy, Erdonabiy, wholesale, Ketmontepa fortress, Lalkhona, vinegar, caravanserai, silk, carpet, money, Namangan, Khujand, Central Asia, Turan, foundation, whip, scabies, stall, shop, market.

ICHKI SAVDO QO'QON XONLIGI IQTISODIY TARAQQIYOTINING MUHIM OMILLARIDAN BIRI (1701-1876)**Turdiyeva Mohinur Ilhomjon qizi,**

Navoiy Davlat Universiteti,

Tarix Fakulteti 2-kurs magistratura talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qo'qon xonligining iqtisodiy hayotida ichki savdoning muhim roli, asosiy savdo va tijorat markazlari, bozorlar, karvonsaroylar, narx-navo, dallollik, hunarmandchilik, dehqonchilik, chovachilik mahsulotlari savdosi haqida, Shuningdek, xonlikning yirik iqtisodiy markazlarga aylangan shaharlari va bozorlardagi muhit haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: inqiroz, Norbo'tabiy, Erdonabiy, ulgurji, Ketmontepa qo'rg'oni, La'lxona, sirka, karvonsaroy, ipak, gilam, pul, Namangan, Xo'jand, O'rta Osiyo, Turon, vaqf, qamchi, qo'tir, rasta, do'kon, bozor.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I2Y2025N12>

Kirish. XVIII asrning boshlarida O'rta Osiyo xonliklari chuqur siyosiy inqirozni boshdan kechirgan. Ichki boshboshdoqlik, tashqi dushmanlarga qarshi kurashish, turli hukmdorlarning o'zaro toj-u taxt uchun kurashlari sababli Qo'qon xonligida ham murakkab siyosiy vaziyat vujudga kelgan. Albatta, siyosiy jarayonlar mamlakatning iqtisodiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Erdonabiy (1751-1762), Norbo'tabiy (1762-1798) hukmronligi davridan boshlab iqtisodiy hayat jonlana boshlandi, aholi farovonligi yaxshilandi. Norbo'tabiy hukmronlik taxtiga chiqqandan keyin esa xonlikning nisbatan taraqqiyot davri boshlandi. Qo'qon hududlari kengayib Turon zaminida mavqeyi yuksaldi. Olimxon (1798-1810), Umarxon (1810-1822), Muhammad Alixon (1822-1842) hukmronligi davrida xonlik O'rta Osiyoda siyosiy mavqeyini mustahkamlash bilan bir qatorda iqtisodiy jihatdan ham yuksaldi, xonlik taraqqiyoti yangi bosqichga ko'tarildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Xonlikning iqtisodiy hayotida savdo munosabatlari alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Savdo-sotiq ichki va tashqi savdodan iborat bo'lgan. Ichki savdo munosabatlari xonlikdagi o'troq dehqonlar, ko'chmanchi chorvadorlar va shahar-qishloq hunarmandlari orasidagi an'anaviy savdodan iborat bo'lgan. Ishlab chiqaruvchilar tomonidan tayyorlangan mahsulotlar bilan aholining kundalik ehtiyojlari to'laligicha qondirilgan. Hunarmandlar va kosiblar savdo orqali yaqin aloqada bo'lganlar, hunarmandlar aksariyat hollarda o'z mahsulotlarini o'zлari sotganlar. Dehqon va chorvadorlar esa haftaning ma'lum bir kunlari o'z mollarini bozorga olib chiqqanlar. Bozorlardagi narx-navo bir xil maromda bo'lmay, o'zgarib turgan. Narx-navo xonlikdagi tinchlik osoyishtalik, urushlar, iqlimning yomon kelishi oqibatida hosildorlikning kamayishi kabi sabablarga qarab o'zgarib turgan [9.340].

Xonlikning yirik shaharlarida haftasiga ikki-uch marta, kichikroq shahar va katta qishloqlarda, bir-biriga yaqin bo'lgan bir nechta kichik qishloqlar tutashgan joylarda haftada bir marta bozor bo'lgan. Qo'qon bozori Turon zaminida eng mashhur bozorlardan biri bo'lib, Buxoro bozoridan so'ng ikkinchi o'rinda turgan. Shuningdek, Qo'qon bozorlari mahsulotlarga boy ekanligi va narx-navoning boshqa shaharlarga nisbatan bir muncha arzonligi bilan ajralib turgan. Masalan, 1820-yili Qo'qonda "devor bilan o'ralgan 6ta bozor bo'lgan, ularning ikkitasini mahalliy aholi, qolgan 4 tasi esa chetdan kelgan savdo karvonlari egallagan. Haftaning 3 kunida asosan yakshanba, chorshanba, payshanba kunlari bozorlar faoliyat olib brogan [1.110]. Aynan shu kunlar shahar atrofidan, qishloqlardan turli xildagi buyumlar va mahsulotlar olib kelingan. Ipak va ipli matolar shu yerlardagi xonadonlarda to'qilgan. Faqatgina qog'oz ishlab chiqaruvchi fabrika va porox zavodidan tashqari hech qanday fabrikalar bo'lmasgan [10.282]. Bozorlarda juda kuchli nazorat o'rnatilgan bo'lib, xaridorning haqqiga hiyonat qilganlik uchun o'ta qattiq jazo belgilangan.

Qo'qonda turli hududlarda yetishtirilgan va tayyorlangan mahsulotlarning eng yaxshilarini topish mumkin bo'lgan. Bundan tashqari, Qo'qon bozori Farg'ona vodiysiga qo'shni hududlardan kirib keladigan tovarlarning asosiy tarqatuvchi markaz vazifasini o'tagan hamda bu yerda har xil hududlardan kelgan savdogarlarni uchratish mumkin bo'lgan. Xonlikda ichki savdo bir muncha rivojlangan. Jumladan, Qo'qondan Toshkentga paxta, xom ipak, ipak hamda yarim ipak, ip matolar, ho'l va quruq mevalar, Qashqar va Xitoy mollari olib kelingan. Xonlik shaharlari yirik iqtisodiyot markazlari edi. Shunday markazlar qatoriga, Namangan, Qo'qon, Avliyo otadan tashqari Xo'jand, O'sh, O'ratega, Marg'ilon, Toshkent kabi shaharlar ham kirar edi. Shaharlarda istiqomat qiluvchi aholi asosan hunarmandchilik va savdo, qisman bog'dorchilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan. Qo'qon xonligi shaharlarda hunarmandchilikning turli sohalari rivojlangan. Shuningdek, ba'zi shaharlar hunarmandchilikning ma'lum sohalari aynan shu hududda rivojlanganligi bilan ajralib turgan.

Qo'qon qog'ozni xonlik bozorlarida qadrli mahsulotlardan biri hisoblangan va xaridorgir bo'lgan. Hattoki, Buxoro amirlari ham o'z maktublarini yozishda aynan ushbu qog'ozdan foydalanishgan. XVIII asrda Qo'qonda 2 ta qog'oz ishlab chiqaruvchi korxona mavjud edi: ularning biri shaharning "Mo'yi muborak" madrasasida, ikkinchisi esa Chorsu qishlog'ida joylashgan edi [2.]. 1871-yilda Fedchenko bu mahsulotni ishlab chiqarish jarayonini o'z ko'zi bilan ko'rib, batafsil bayon qilib bergen. Uning bergen ma'lumotlariga qaraganda, O'rta Osiyoda faqat Qo'qon shahrida qog'oz ishlab chiqarilgan, ammo ushbu soha Rossiya sanoati tomonidan ishlab chiqarilgan arzon fabrika qog'ozlari xonlik bozorlarini egallashi natijasida kasodga uchragan.

Xonlik bog'larida yetishtirilgan anordan Namangan va Toshkent shaharlarida sirka tayyorlangan va unga rus savdogarlari orasida talab katta bo'lgan. Bozorlarda sirkaning shishasi bir tangadan sotilgan [9.343]. Xonlikda yog'och, metallga ishlov berish, temir buyumlar tayyorlash ham ancha taraqqiy etgan. Qo'qon, Andijon, Namangan, Toshkent shaharlarida ushbu sohalarga ixtisoslashgan bir qator ustaxonalar bo'lib, ular asosan bozorlardagi hunarmandchilik do'konlarida joylashgan va tayyorlangan mahsulotlar shu yerning o'zida xaridorlarga sotilgan.

Bundan tashqari, xonlikning Chust, Shahrixon, Qorasuv, Poytug' kabi shaharlarida ham temirchilik sohasi ancha taraqqiy etgan bo'lib, ular asosan pichoq ishlab chiqarishga ixtisoslashgan.[6.123] Turli xildagi pichoqlar ishlab chiqarilib, mahalliy aholining kundalik ehtiyojlari qondirilgan.

Xonlik hududi qazilma boyliklari va noyob ma'danlarga boy bo'lgan. Ichki bozorga qimmatbaho metallar va ma'danlar ham olib kelingan. Xususan, Namangan bozorlariga oltin Kosonsoy hududidan keltirilgan. Olatov tog'laridan va Ketmontepa, Andijon yaqinidagi La'lxona mavzesidan esa kumush va qo'rg'oshin qazib olinib, xonlik bozorlarida sotish uchun keltirilgan. A.P.Xoroshxinning ma'lumotlariga qaraganda, savdogar Pervushinning ishonchli odami A.I.Xrennikov Qo'qonga ketayotib Xo'jand yo'lida va Konibodom shaharchasi atrofida neft topgan. Yerli aholi undan qo'tir kasalligini davolash hamda poyabzal tayyorlashda foydalanganlar [8.44].

Xonlikning ichki savdosida ko'chmanchi va chorvador aholi tomonidan tayyorlangan gilam, sholcha, namatlar muhim o'rinn tutgan. Xonlik shaharlarida bu mahsulotlarni sotadigan o'z bozorlari mavjud bo'lgan. Masalan, Andijon gilam bozori bilan, Namangan qoraqalpoq va qirg'izlar tomonidan keltirilgan kigiz bozorlari bilan mashhur bo'lgan. XIX asrning ikkinchi yarmida Qo'qon bozorida 4x2.5 andozali mahalliy gilam 30 rubldan 40 rublgacha sotilgan [3.29].

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, narx-navo doimo bir xilda turmagan. Mamlakatdagi urushlar, ob-havoning yomon bo'lishi va hosildorlikqa qarab o'zgargan. Narx-navo oshib ketishiga yana bir omil sabab bo'ldiki, Rus qo'shinlari vodiya bostirib kirdi va qator hududlarda janglar olib bordi. Natijada, aholining hayoti xavf ostida qolib, uzoqdagi bozorlarga borish xatarli edi. Chunki ular bozorga o'z mollarini olib borsa, yo'lida rus bosqinchilar yoki qo'zg'olonchilar tomonidan hujumlarga uchrab, mahsulotlari talon-taroj qilinishi mumkin edi. Shuning uchun bozorga juda muhtoj odamlar yoki uyi yaqin kishilar sotish uchun tovar olib bora olganlar xolos. Ma'lum muddat bozorlarda kundalik ehtiyojli tovarlarning narxi oshib ketdi[1.113].

Ichki savdoda dehqonchilik mahsulotlari ham katta o'rinn egallagan. Bu davrda xonlikda arzonchilik va to'kin-sochinlik edi. Bu haqida Muhammad Aziz Marg'iloni "Bu vaqtarda Qo'qon xonligida pul oz va narx arzonchilik edi. Yoz faslida 1 arava handalak 2.5 tangadan 5 tangagacha turgan va 1 arava qovun 3.5 tangagacha sotilgan, 1 savat o'rik 3 miri va 1 tanga, 1 chaqsa¹ guruchning bahosi 1 tangadan 2 tangagacha, toza pista 50 paysadan 1 tangagacha sabzi va piyozni 1 puldan 6 pulgacha xarid qilib, zo'rg'a ko'tarib ketardingiz, 1 tangaga 40 chaqa berur, bu tangani hamyoningizga solib to kechgacha sarf qilishingiz mumkin va hammasi sarf bo'lmasdan qaytib ham keladi" — deb yozgan edi [5.70-71].

¹ Izoh: Chaqsa 1/3 ga teng og'irlik o'lchov birligi .1 pud 16.3 kgga teng (O'zbekiston milliy ensiklopediyasi -T,9-tom,2005 .B.566

Lekin bozorlarda o'g'irlilik holatlari ham uchrab turgan va bunday ishlar sodir etilsa, juda qattiq jazo choralari qo'llanilgan. Masalan, qo'y o'g'irlagan shaxsning barmoqlari kesib tashlangan va qaynab turgan chelakdagi suvga tiqilgan, eshakka teskari tarzda mindirib bozor aylantirilgan. Xaridorning haqqiga xiyonat qilib, tarozidan urgan shaxs ega yalang'och tarzda bozorda qamchilangan. Albatta, bunday jazo choralari bozorlarda talon-taroj, o'g'irlilik holatlarini kamayishida muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

Muhokama va natija. Iqtisodiy markazlar sonining oshishi natijasida mamlakat aholisining farovonligi ham oshib bordi, iqtisodiy markazlar ko'paya boshladi. Hunarmandchilik sohasi rivojlandi va natijada qishloqlardagi xomashyolardan turli xil mahsulotlarni tayyorlovchi ustaxonalar tashkil topdi. Xonlikdagi shaharlar ma'lum bir mahsulotlarni tayyorlash bo'yicha ixtisoslashib bordi. Jumladan, Toshkent shahri dasht aholi orasida talab katta bo'lgan ipdan tayyorlangan matolar va hunarmandchilik buyumlariga, Qo'qon qog'oz ishlab chiqarish va zargarlik buyumlari, egar va ot-aravalarga; Marg'ilon va Xo'jand ipak mahsulotlariga; Namangan bog'dorchilik mahsulotlari va yog'och buyumlar; Andijon va O'sh shaharlari chorvachilik va ko'nchilik mahsulotlariga; Turkiston, Chimkent, Avliyo-ota va Sayram shaharlari chorvachilik mahsulotlariga ixtisoslashgan. Iqtisodiyot rivojlanishi natijasida turli shaharlar va hunarmandlar orasida raqobat kuchaydi. Shaharlarda karvonsaroylar, bozorlar, rastalar barpo etildi. XVIII asrning yarmidan boshlab xonlik o'z puliga ega bo'ldi hamda tovar-pul munosabatlari tartib ostiga olindi.

Xonlik bozorlari orasida Qo'qon bozori alohida ajralib turgan. XIX asrning boshlarida xonlik iqtisodiy hayotida keskin o'zgarishlar yuz berishi oqibatida bozorlar soni ham ortib bordi. Qo'qon bozori Buxoro bozoridan so'ng Turondagi eng yaxshi bozorlar sirasiga kirar edi va u bu nomga Muhammadalixon hukmronligi davrida erishgan [7.200].

Asosiy bozor mahsulotning turiga qarab, kichik bozorlarga va alohida savdo rastalariga bo'lingan. Qo'qon bozorlaridagi do'konlar 3 turga bo'lingan. Ular hukmron sulola va turli amaldorlarga tegishli, vaqf va xususiy do'konlarga bo'lingan. Qo'qon bozorlarining aksariyati tepe qismi yopiq tarzda qurilgan bo'lib, yog'ingarchiliklar sharoitida noqulayliklar tug'dirmasligi e'tiborga olingan. Hukmdorlar mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib, ko'plab bozorlar, rastalar, karvonsaroylar barpo ettirganlar.

Shunday hukmdorlardan biri Xudoyorxon hukmronligi davrida 1856-1857-yillar davomida Qo'qon asosiy bozorida karvonsaroy va to'qimachilik mollari sotish uchun mo'ljallangan savdo rastalari qurildi. Ushbu davrda xonning buyrug'i bilan qurilgan Karimquli mehtar tomonidan qurdirilgan chit rastasi poytaxtdagi eng yirik chit rastalaridan biri edi. Shuningdek, 1867-1868-yillarda Xudoyorxon xazinabon Iso Avliyoga xonlik barcha hududlarida do'kon, bozor, karvonsaroylar qurish topshirig'ini bergen. Buning natijasida xonlikning barcha hududlarida chit sotuvchi rastalar, katta va kichik bo'lgan paxta va o'tin saqlovchi savdo rastalari va karvonsaroylar barpo etildi. Ushbu davrda chit sotuvchi rastalar soni 250 taga yetdi [5.15].

Qo'qondagi asosiy bozor shaharning markazida, turli ko'chalar tutashgan hududda joylashgan bo'lib, "Katta bozor" nomi bilan taniqli bo'lgan. 1875-yilda poytaxt Qo'qonga tashrif buyurgan A.L.Kun ushbu bozorda 2000 ga yaqin do'kon mavjudligi haqida qayd etgan [4.61].

Xudoyorxon hukmronligi davrida poytaxtdagi hammom, karvonsaroy, savdo rastalari, do'konlardan soliq undirilmagan. Chunki ularning katta qismi xonga yoki vaqf mulklariga tegishli edi. Do'konlar savdogarlarga ijara berilgan va ulardan ma'lum miqdorda ijara haqi

olingoN. Xonlik bozorlarida eng yirik savdo ochiq maydonda amalga oshirilgan bo'lsa, karvonsaroylarda asosan, xorij tovarlari, qimmat mollar, ulgurji tovarlar sotilgan.

Xonlikning eng yirik va boy bozorlaridan biri Toshkentda joylashgan. U yerda asosan, mahalliy hunarmandchilik, bog'dorchilik va dehqonchilik mahsulotlari sotilgan. Xuddi shunday bozorlar sirasiga Namangan bozori ham kirar edi. Ushbu bozor tog'li qirg'izlar bilan olib boriladigan savdoda muhim rol o'ynagan. XIX asrning ikkinchi yarmida ushbu shaharda Xudoyorxon hukmronligi davrida 500 do'kondan iborat bo'lgan katta bozor qurdiradi. Har bir do'kon xon xazinasiga 5 tillodan 10 tillogacha daromad olib kelgan. Buning natijasida, xon xazinasiga katta daromad tushgan. 1875-yilga kelib Namanganda 1000 dan ortiq savdo do'konlari bor ekanligi qayd etilgan [4.64].

Xonlik bozorlari orasida Marg'ilon bozori ham alohida ahamiyat kasb etgan. Ushbu bozor o'zining ipak va ipakchilik mahsulotlari sotiladigan bozorlari bilan hattoki chet elliklar orasida ham mashhur bo'lgan. Qo'qon xonlari ushbu bozorga alohida e'tibor qaratib bozorni kengaytirish choralarini ko'rganlar, turli do'kon, rastalar va karvonsaroylar qurdirganlar. Marg'ilon hokimi bo'lgan Sulton Murodbek hukmronligi davrida Marg'ilon shahridagi chitfurushlik bozori ro'parasida kattagina savdo saroyi qurdirib, uni Qo'qondagi Hokim Oyim madrasasiga vaqf qilgan [5.].

Xonlikda shuningdek, ko'plab karvonsaroylar ham qurilgan. Karvonsaroylarda turli hududlardan kelgan savdogarlar yashashi, tovar va ulovlarini saqlashi hamda shu yerdagi do'konlarda savdo qilish imkoniyatiga ega bo'lgan. Ushbu karvonsaroylar asosan hukmdorga, xususiy shaxslarga, diniy muassasalarga tegishli bo'lgan. Yo'l yoqasida joylashgan karvonsaroylarda suv zaxirasi ham mavjud bo'lgan. Asosan, Qo'qon shahrida karvonsaroylar ko'p edi. XIX asrning o'rtalarida Qo'qonda 9 ta karvonsaroy bo'lgan, XIX asrning 70-yillariga kelib, Xoroshxinning bergen ma'lumotlariga qaraganda, shaharda 10 ta karvonsaroy bo'lib, ulardan biri Zakatsaroyda bo'lib rus savdogarlarini savdo qilganlar, yana birida paxta bilan savdo qiluvchi savdogarlar turishgan [8.40-41].

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, xonlik hukmdorlari ham mamlakatda iqtisodiyotning taraqqiy etishiga, savdo-sotiQ aloqalarining rivojlanishiga alohida hamiyat bergenlar. Mamlakatda yaratilgan barcha shart-sharoitlar, ya'ni bozor, rasta, karvonsaroy, do'konlarning qurilishi, mahalliy savdogarlar katta miqdordagi soliqlarni to'lashga jalb qilinmaganligi sababli xonlikda iqtisodiyot bir muncha taraqqiy etdi va buning natijasida yirik iqtisodiy savdo markazlari paydo bo'ldi. Ichki savdo munosabatlarining rivojlanishi, xonlik shaharlarining muayyan turdag'i mahsulotlar ishlab chiqarishi va sotishga ixtisoslashuviga olib keldi. Bu o'z navbatida ichki bozorning shakllanishi va rivojlanishini tezlashtirdi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Bobobekov.X "Qo'qon tarixi". T.: Fan, 1996. B-110.
2. Федченко А. Оби джуазъ-писчебумажная фабрика в Кокане.... – С. 414
3. Головин Г. Ковровое производство // Туркестанский сборник. Том 512. – С. 29
4. Кун А. Л. Очерк Кокандского ханства // Известия РГО. Том XII. – СПб., 1875. – С. 61 – 62
5. Muhammad Aziz Marg'iloni. Tarixi Aziziy /Nashrga tayyorlovchilar Sh.Vohidov,D.Sangirova -T: Ma'naviyat ,1999.-B 70-71
6. Мусаев Д., Ҳошимов Ҳ. Андижоннинг XIX аср оҳири – XX аср бошлари даври ҳунармандчилиги тарихини ўрганилишига доир // Марғилон шаҳрининг Жаҳон цивилизацияси тарихидаги ўрни. Марғилон шаҳрининг 2000 йиллик юбелийига

- бағишлиланган халқаро илмий конференция материаллари. – Тошкент – Марғилон, 2007. – Б. 123
7. Набиев Р. Н. Из истории Кокандского ханства. – Т., 1973. – С. 200.
 8. Хорошхин А. П. Сборник касающихся по Туркестанского края. – СПб., 1876. – С. 40 – 41
 9. Zamonov.A, Egamberdiyev.A. O'zbekiston tarixi. IV qism Buxoro amirgili, Xorazm va Qo'qon xonliklari.-Toshkent "Bayoz",2022.-340-b
 10. Записки хорунжаго Потанина ,282-б

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 2 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali 2020-yil
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan
davlat ro’yxatiga olingan.**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefon:
(99) 602-09-84 (telegram).